

## O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH TUSHUNCHASI

*Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li*

[Avazbekdomla93@gmail.com](mailto:Avazbekdomla93@gmail.com)

+ 998 94 564 62 52

+ 998 77 287 58 58

Ta'limning zamon bilan birgalikda rivojlanib borishi, ta'limda o'zgarishlar qilishga ya'ni yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ta'lim xar doimgidan ham ko'ra muhimroqdir. Shuning uchun ham axborotlardan samarali foydalanishning yo'llari va imkoniyatlarini topish ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim oluvchi yoshlarni, axborotlarni qabul qilish, uni to'g'ri va to'liq o'zlashtirish, interpretatsiya qilish, ongda qayta ishlash, shu bilan birga, shaxsiy kreativ fikrlash asosida axborotlarni ishlab chiqish, o'zlashtirilgan axborotlarni boshqalari bilan bog'lash ya'ni integratsiya qilishga o'rnatilishi, o'quvchilarni o'quv faoliyatida ham, shuningdek, hayotida ham axborotlardan foydalanish kompetentligini oshirishga foyda bermog'i lozim. Ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirib borilishi bilan birga uni qo'llay olishga o'rganilishi ularni interpretatsiya qilish, qayta ishlash va imitatsiyalarini yaratish imkoniyatlarini beradi. Qadimgi Grek faylasufi Suqrot «o'qituvchining ijodkorligi, ... bu tayyor axborotni o'quvchiga yetkazishga emas, balkim, o'quvchilarni haqiqatga intilish, mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilganlidadir» deb ta'kidlagan. Ko'pincha o'zlashtirilgan axborotlar miqdori (ya'ni uning hajmi) ta'lim samarasi sifatida qaralib, ta'lim natijalarini baholashda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinadi. Shuni ham aytib o'tish joizki, axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o'zlashtirilgan axborotlarni tegishli sohalarda hamda hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi. Axborot tushunchasiga turli ilmiy adabiyotlarda, lug'atlarda turlicha ta'riflar keltiriladi. Misol uchun, predmet, dalil, voqeа, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar, shu kabi ob'ektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar, qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar, shuningdek, «axborot» (lot. information – tanishtirish, tushuntirish) – falsafada qadim zamonlardan beri ishlatilib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtida yangi, kengroq ma'no kasb etgan markaziy kategoriylar sifatida maydonga chiqqan tushuncha sifatida ta'riflar keltirilgan.

Axborot atamasi kishilik jamiyatining ko'pgina sohalarda foydalaniladi va ular asosida ta'lim – tarbiya jarayoni olib boriladi hamda pedagogik faoliyat boshqariladi. Bugungi axborotlashgan vaqtida jamiyat hayotida ham muayyan darajada ahamiyat kasb etib, xususan, ta'lim - tarbiya jarayonlarini boshqarishda asosiy manba bo'lib

hisoblanadi, shuningdek, ular ob'ektdan olingan axborotlarni tizimlarga (qism tizimlarga) ajratish va qayta ishlash hamda kerakli maqsadlar bo'yicha uzatish algoritmlarini amalda joriy etishga ham keng imkoniyatlar yaratadi

Bugungi kunimizda jamiyatning har bir a'zosi, o'zining doimiy kundalik faoliyatida, to'xtovsiz ravishda axborotlardan foydalanadi. Bir so'z bilan aytganda har bir inson axborot iste'molchisi hisoblanadi. Axborot iste'molchisi o'z ehtiyojini qondirish (bilimlarni oshirish, ta'lim olish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs va shaxslardir. O'quvchilar ham axborot iste'molchilari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida, kundalik faoliyatlar davomida o'quvchilar axborotlarning faol iste'molchisi sifatida o'z o'quv faoliyati jarayonida kerak axborotlarni o'zlashtirib boradi. Axborot iste'molchilari sifatida o'quvchilarning axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalash yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib ularda axborot iste'moli madaniyatining vazifalariga alohida e'tibor berib o'tilgan.

Axborotdan foydalanish ko'lamlari jamiyat rivojlanishi darajasini belgilaydi YUNESKO hulosasiga ko'ra, axborotlashtirish – bu axborotlarni to'plash, saqlash va uzatish vositalarining keng qo'llanilishidir. U mavjud bilimlarni tizimlashtirish va yangi bilimlarni shakllantirish hamda ularni joriy boshqarish, yanada takomillashtirish va rivojlantirish uchun qo'llashni ta'minlaydi.

Axborot bilan ishslash – turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va uzatish jarayonlaridan iborat. F.M. Qo'chqorova o'zining tadqiqot ishlarida o'quvchida axborotlarni qayta ishslash ong osti mexanizmlarini faollashtirish hamda dalillarga asoslangan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha o'quv materiallarini strukturalash va bloklarga ajratishga alohida urg'u bergen.

Shuningdek, ularni atrofdagi real voqeliklar mazmunini aks ettirgan axborotlardan ko'ra to'qima obrazlar, hayoliy voqealar, mavhum tushunchalar mazmunini aks ettirgan axborotlar ko'proq o'ziga jalb qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, ular real voqea – hodisalar va predmetlarning asl mohiyatini to'liq tushunmaydi. Ularni o'quvchi o'z ongida aks ettira olmaydi. O'quvchi uchun ma'lum hayotiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, o'zlari tomonidan, yoki ular uchun to'qib chiqarilgan voqea-hodisalar ko'proq tushunarli. Shuning uchun axborotlarning tub mazmuni hamda ikkilamchi ma'nosi bilan tanishtirib borish muhim.

Ta'lim jarayonida axborotlar bilan ishslash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amaliyoti ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'limning talablari xususan, «mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko'nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishi» kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari o'rganilib chiqildi.

Ta'limda kompetentsiyaviy yondashuv «... kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi»

«Kompetentsiya» tushunchasi ilk bor XX asrning 50–60-yillarida ilmiy adabiyotlarda tilga olingan. Amerikalik olim N.Chomsky «Sintaktik strukturalar», «Sintaksis nazariyasining aspektlari» nomli asarlarida kompetensiyani insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqati sifatida talqin etgan

Ilmiy adabiyotlarda «kompetentsiya» va «kompetentlik» tushunchalarini ta'riflashda turli qarashlar mavjud. F.Delamare va J.Winterton kompetentsiyani ma'lum bir faoliyat talab qiladigan standart xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlikni ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetentsiyani namoyish qilishning pirovard natijasi sifatida tavsiflaydi

G.A.Asilova dissertatsiya ishida «kompetentsiya» va «kompetentlik» tushunchalari bo'yicha berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda «kompetentsiya» – ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishi; «kompetentlik» muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir deb ta'riflagan.

J.E.Usarov o'z ilmiy ishlarida kompetentsiyaning «ma'lum soha yoki yo'nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan tayyorlikning namoyon bo'lishi hamda shaxsning turli nostandard holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir» ta'rifi ko'rsatib o'tgan.

B.X.Xodjaevning fikricha «kompetentsiya o'quvchining yangi shaxsiy tajribani o'zlashtirishga doir o'z-o'zini rivojlantirishga doir harakatlarini integratsiyalashga xizmat qiladi». N.A.Muslimov kompetentlik alohida bilim va malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishi ekanlini ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda ta'lim mazmuni isloh qilinayotgan bugungi kunda ta'lim mazmunining asosini ta'lim oluvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish tashkil etadi. Tayanch kompetentsiyalar deganda ta'lim oluvchi uchun dolzarb hisoblangan muammolarni yechishdagi noaniq vaziyatlarda mustaqil harakat qila olish qobiliyati tushuniladi.

Ta'lim - o'quvchilarning axborot olish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirilganlik darajasining oshishi,

axborotlardan foydalanish ko'laming kengayishi ta'lim samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to`g`risida Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637 son Qonuni.
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2016 yil 14 sentyabr
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 45 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 396 b.
5. Begimkulov U.Sh., Djuraev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent, 2011. - 177 b
6. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога // Педагогика. 2003. – № 10
6. Галкина А.И. О развитии Российского фонда компьютерных учебных программ // Педагогическая информатика. – 1994. – № 1.
7. Компетентностный подход в педагогическом образовании: Коллектив. Монография / Под ред. проф. В.А. Козырева, проф. Н.Ф. Радионовой и проф. А.П. Тряпицыной. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2005.
8. Кузьмина Н.В. Актуальные проблемы профессионально-педагогической подготовки учителя // Советская педагогика. – 1982. – № 3. –
9. Образование и информатика: II Междунар. конгресс ЮНЕСКО // Информатика и образование. – 1996. – № 5.